

ISSN: 2545-0573

Pedagog Xotin-Qizlarning Ma'naviy Kompetentligini Rivojlantirish Davr Talabi

Qosimova Ozoda Xudonazarovna

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Pedagogika va psixologiya kafedrası v.b.dots, p. f. f. d.
(PhD)*

Sobirov Diyorbek Dilshod o'g'li

SamDTU talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

Pedagog, xotin, qiz, vazifa, talaba, talim, tarbiya, ma'lumot, xususiyat, xatti-harakat, javobgar, psixologiya, tushuncha, muammo, xulq-atvor, sabab, bilish, tushunish, o'qitish, usul, o'qituvchi, jarayon, muvafaqqiyat, axborot, texnologiya, texnologiya, kompeten, rivojlanish, taraqqiyot.

ANNOTACSIYA

Pedagog xotin-qizlarning asosiy vazifasi talabalarga talim-tarbiya berishdir. Pedagog xotin-qizlar talabalar o'rganishlari lozim bo'lgan ma'lumotlarni ularga chiroyli va tushunarli tarzda yetkazishdan tashqari, ular turli xususiyatlar va xatti-harakatlarga ega bo'lgan talabalar bilan ishlash uchun ham javobgar shaxs hisoblanadilar. Shuningdek, o'qituvchi talabalarining xulq-atvorini yaxshi o'rgansa, o'qitish jarayoni muvafaqqiyatli bo'ladi.

Pedagoglik kasbi talabalarni o'z potentsiallarini ro'yobga chiqarishga undashdir. Tajribali pedagog bo'lishning ko'plab usullari mavjud bolsada, ushbu maqolada pedagog xotin-qizlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoni hamda pedagog xotin-qizlarning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda ta'lim, tarbiya jarayonini samarali olib borishda, ularning ma'naviy kompetentligini yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etganligi haqida bayon etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida "Shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur", degan xulosaga kelindi.

Madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida ta'lim muassasalarida sog'lom ma'naviy muhitni tarkib toptirish, bo'lajak mutaxassislarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, yangi milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini qaror toptirish, ma'naviy-axloqiy merosni chuqur o'rganish, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmonining2 "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalishida "maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni

rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish” nazarda tutilgan. Mazkur masalalar jamiyatimizda kamol topayotgan shaxsning ma’naviy-axloqiy yetuklik muammosini to’g’ri hal etish bilan bevosita bog’liqdir.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko’ra tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontsepsiyasi” ning VI bobida umumiy o’rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish o’z ichiga ikki davrni qamrab olinishi qayd qilingan (birinchi davr — 7 (6) — 10 yoshli davrda — boshlang’ich sinflarda; ikkinchi davr — 11 — 17 yoshli davrda — o’rta va yuqori sinflarda).

Mazkur vazifani amalga oshirishda xalq ta’limi muassasalari pedagog xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo’lish talab etiladi. Shu asnoda bunday sifatlarga ega bo’lish pedagog xotin-qizlardan birdek talab yetiladi. Avvalambor, pedagog xotin-qizlar o’quvchilarda yoshiga mos tayanch ma’naviy-axloqiy fazilat (kompetentsiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabilarni shakllantirishda yetakchi rol o’ynaydi.

Pedagog xotin-qizlardan vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo’lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o’zini ayamasligi, bu yo’lda o’zining barcha imkoniyatlarini safarbar qila olish malakasiga ega bo’lishligi, o’z kasb-korining ustasi, shu ishning chinakam bilimdoni, bu borada o’quvchilarga o’rnak bo’lishi talab etiladi. Buning uchun pedagog xotin-qizlarning uzluksiz ma’naviy kompetentligini rivojlantirish zaruriyati paydo bo’ladi.

“Kompetentlik” – tushunchasi dastlab ta’lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo’lib, zamonaviy atama sifatida qo’llanilib kelinmoqda.

«Competentia» lotincha so’zdan olingan bo’lib, o’zbek tilidagi tarjima qilinganda unung lug’aviy ma’nosi «yaxshi biladigan inson», «tajribaga ega bo’lgan kishi» kabi ma’nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta’lim jarayonida sodir bo’ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar pedagogning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, yoshlarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo’lishi, raqobardosh tomonlar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda pedagog tomonidan o’zlashtirilgan bilim, ko’nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo’llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Ta’lim sifatini oshirish bu bugungi kunda butun jahon hamjamiyatidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Uni hal etish uchun esa, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim jarayoni texnologiyalarini va so’zsiz ta’limning yakuniy maqsadini qayta ko’rib chiqish talab etiladi.

Ta’limni jamiyat madaniyatini o’zlashtirish asosida ta’lim oluvchilarda faoliyatning turli sohalarida shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatini rivojlantirishning maxsus tashkil etilgan jarayoni sifatida qarash mumkin. Ta’lim maqsadini bunday tushunish esa, o’z navbatida kompetentli yondoshuvni ro’yobga chiqarish uchun asos yaratadi. «Kompetentlik» va «kompetensiya» ta’limda kompetentli yondoshuvning asosiy tushunchalaridir. Manbalar tahlili esa, ularning ilmiy adabiyotlarda bir qiymatli ta’rifga ega bo’lmagan murakkab, ko’pkomponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ko’rsatadi. Tadqiqotchilar fikricha ular hajmi, turkumi, semantikasi va mantiqiy tuzilmasi bo’yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsifi (xususiyatlari, odatlari va boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs tavsifi (xususiyat, shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta’lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim, ko’nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo’naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin, ko’pincha esa, kompetentli bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi. G.K. Selevko kompetensiyani atrof - muhitni o’zgartirish bo’yicha maqsadni qo’yish va unga erishishga imkon beradigan bilim, ko’nikma va malakalar majmuasi shakli sifatida tushungan. Kompetentlik - bu shaxsning ta’lim olishi va ijtimoiylashuvi jarayonida egallagan hamda faoliyatda mustaqil va muvaffaqiyatli ishtirokiga yo’naltirilgan bilim va tajribalariga asoslangan, uning faoliyatidagi umumiy

qobiliyat va tayyorgarligida namoyon bo'ladigan integrallashgan sifat. Ilmiy-metodik adabiyotlarda kompetensiyaning quyidagi an'anaviy tasniflari qayd etilgan:

- javobgarlikni o'z zimmasiga olish, hamkorlikda qaror qabul qilishda ishtirok etish qobiliyatiga bog'liq siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar;
- madaniyati, tili va dinidan qat'iy nazar boshqa insonlar bilan yashashga, ularni tushunishga, ularga yordam berishga va o'zaro kelishmoqchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan, jamiyat hayotida uchraydigan kompetensiyalar;
- kasbiy faoliyatda va jamiyat hayotida muhim bo'lgan yozma va og'zaki muloqotga egalikni aniqlovchi kompetensiyalar;
- axborot jamiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan kompetensiyalar (yangi texnologiyalarga ega bo'lish va ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash).

Ular o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va bir -biriga bog'liq bo'lgan tushunchalar. Kompetensiyaga ega bo'lmagan kompetentli shaxs uni ijtimoiy ahamiyatli jihatlarida to'laqonli amalga oshira olmaydi.

Bu borada kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoni umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilarini pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda ta'lim, tarbiya jarayonini samarali olib borishda, ularning ma'naviy kompetentligini yanada takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning tayanch, umumiy va xususiy kompetentligini rivojlanish darajasining pedagogik-psixologik xususiyatlari va omillarini aniqlashtirish, pedagogik faoliyatini takomillashtirishda asqotadi.

Malakasini oshirish jarayoni o'qituvchilarda nafaqat umummadaniy kompetensiyalarni, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir turli axborot manbalarini mustaqil izlab topish va ulardan foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat sub'ektlari bilan samarali muloqotga kirishish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga doir ilmiy-texnik axborotlarni aniqlash, tahlil etish va qayta ishlash kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.17.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi « O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi PF-4947-son Farmoni // « Xalq so'zi», 2017 yil 8 fevralь.
3. Kasimova O. K. The Schools for Girls in Central Asia: the Meaning of Education and Methodology //Eastern European Scientific Journal. – 2016. – №. 3
4. The role of excursions to spiritual places in the development of the spirituality of the younger generation Utanov Utkir Kurbanovich 699-702 10.5958/2249-7137.2021.01979.0